

Date: 23rd December-2024

SHAXS FAOLIYATIDA MOTIVATSIYANING AXAMIYATI

Xudayberdiyeva Sevara

International school of finance technology and science instituti Psixologiya va
pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
xudayberdiyevas@isft.uz

Saydullayeva Lobarxon, Mannopov Jaloliddin

International school of finance technology and science instituti
2-kurs 23-PSD-03 guruhi talabasi

Annotatsiya: Maqolada motivatsiyaning inson xayotidagi o'rni va ta'lim jarayonidagi ro'li yorqin dalillar bilan tushuntirilgan. Jamiyatda inson rivojlanishi va uni doimo oldinga undovchi o'z maqsadlariga erishishga majbur qiladigan kuch motivatsiya ekanligi muallif tomonidan chiroyli sharxlar bilan yoritilgan. Shu o'rinda odamlarning xulq-atvori va psixikasiga nechog'lik ta'siri borligi aytib o'tilgan va yana axamiyatli joyi motivatsiyani rivojlanish oqibatida liderlik sirlariga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, liderlik, Frederik Xersberg, Stiven Jobs, Jololiddin Rumi.

Abstract: The article explains the role of motivation in human life and the educational process with vivid evidence. The author has explained with beautiful comments that motivation is the force that forces the development of a person in society and always pushes him forward to achieve his goals. In this place, it was mentioned how it affects the behavior and psyche of people, and more importantly, the secrets of leadership due to the development of motivation were emphasized.

Keywords: Motivation, leadership, Frederic Hersberg, Steven Jobs, Jololiddin Rumi.

Kirish

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy hulqi va o'zini qanday tutushi, egallagan mavqeyi ham sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada "Motiv" va "motivatsiya" tushunchalari ishlatiladi.

Motivatsiya-bu keng tarqalgan tushuncha bo'lib, fikrlar, xissiyotlar va xatti-xarakatlar bilan bog'liq. Shuning uchun xam bu aqliy darajadagi eng muxim jarayonlardan biridir. Motivatsiya so'zining ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, (lotincha Movere xarakterat kilish, surish) xarakatlarning sababchisidir. Agar biror kishi muayyan bilan shug'ullanmoqchi bo'lsa, faoliyat demak uning motivatsiyasi bor. Masalan, agar talaba uqishga astoydil kirishsa, unda o'qishga motivatsiya bor, yoxud yuqori natijalarga erishishga intilayotgani sportchida yutuq motivatsiyasi yuqori darajaga ega, raxbarning barchaga bo'ysinishni istagi hokimiyat uchun yuqori darajadagi motivatsiyani ko'rsatadi. Umuman olib qaraganda hayotda biror bir xarakterat turini talab qiladigan barcha holatlar bilan bog'lik, bir stakan suv uchun oshxonaga borishdan tortib, bizning ish imkoniyatlarimizni yaxshilash uchun ko'p martalab o'qishni boshlagancha. Shuning uchun



Date: 23rd December-2024

u bizga ta'sir kiladigan juda keng psixologik jarayondir. Shu sababli tarix davomida odamlarning xulq atvori bo'yicha mutaxassislarga katta qiziqish uyg'otgan. Motivatsiya psixologiya soxasida qanday paydo bo'lganligi haqidagi birinchi izoxlardan biri bu o'tgan asrning 50-yillarida Fredirik Xersberg tomonidan taklif qilgan va uni rivojlantirish uchun dastlabki qadam bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning fikriga ko'ra bizning fikrlarimiz yoki e'tiqodlarimiz va xarakatlarimiz o'rtasidagi ziddiyat bo'lsa, bizning o'zimizni juda noqulay xis qilamiz. Agar bu noqulaylik juda yuqori darajaga yetsa, bizning undan xolos bo'ladigan darajada xarakat qilishga turtki beramiz va bu aynan motivatsiyadir.

Muhokama

Psixologiya soxasida yana bir muvaffaqiyatli nazariyalaridan biri Abroxim Maslou 1943-yilda "Inson motivatsiyasi nazariyasi" asarida ilgari surgan edi. Ushbu maqolada tadqiqotchi bizning extiyojlar ierarxik ya'ni eng asosiylari yuqori darajalari faollashtirilishidan oldin bajarilishi kerak. Shunday qilib, aksariyat shaxslar o'z xayotlarini motivatsiyaning eng past darajalaridan boshlashadi va ular uz extiyojlarini qondirilgandagina, keyingisiga o'tishlari mumkin. Madsen nazariyasiga kura, mavjud bo'lgan motivatsiyalar turlari besh xil darajaga bo'lingan; fiziologik extiyojlar, xavfsizlik, tegishli bo'lish, qaydlash va yangilashdir.

Motivatsiya moxiyati bo'yicha bildirilgan yuqoridagi fikr-muloxazalarga unga berilgan umumlashgan fazilatlarga mutloqo mutanosibdir. Rubinshteyn S.L. "Motivatsiya-bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyasidir", deb ta'kidlagan bo'lsa, Madsen K.B. "Motivatsiya bu xulqqa yo'naltirilgan qo'llab quvvatlovchi, qo'zg'atuvchi omillarning yig'indisidir" deb aytib o'tgan. Quyidagi ma'lumotlar rang barangligi motivatsiyaga yanada chuqurroq yondashish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda motivatsiyaning o'rni qanchalik axamiyatli yoki yoshlar xayotida nechog'lik muxim o'rin kasb etmokda. Bu savollarga javob qidirish maqsadida so'rovnoma o'tkazganimizda, yoshlar biz o'qishimizda xamda ta'lim sifatini oshirishda motivatsiyaning o'rni katta ekanligini aytib o'tishgan bo'lsa, yoshi katta insonlar esa hozirgi kunda yoshlar o'rtasida uzini omadsiz va baxtsiz xis qilishlariga sabab bu aynan motivatsiyaning yetishmasligi deya ta'kidlashdi. Shu urinda Jaloliddin Rumiyning shu gapini eslatib utish urinli deb xisoblayman. "Hayotda omadsiz, baxtsiz va muofaqiyatsiz tushunchalarni o'zi yuk. Shunchaki xayotda dangasa, loqayd va e'tiborsiz degan so'zlar bor xolos".

Shunday ekan, yanada kuchliroq o'qishimiz va maqsadlar sari dadil xarakat qilishimiz o'zimizni baxtli xis qilishimiz o'z qo'limizdadir. Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda "Hozirgi kunda xar tomonlama kamol topgan, yuksak saloxiyatli, aql-zakovatli shaxsni shakllantirish uchun avvalo ularning ta'lim tizimiga e'tibor qaratishimiz lozim". Bu gaplardan ko'rinib turibdiki Yurtboshimiz xam ta'lim tizimiga e'tibor qaratar ekan avvalo buning uchun yoshlar ongiga yuksalish tushunchasini yanada kuchliroq singdirish uchun bunga turtki zarurdir. Aynan saloxiyatli yoshlarni shakllantirish va ulkan maqadlar sari dastlabki qadam aynan



Date: 23rd December-2024

motivatsiya desak mubolag'a bo'lmaydi. Darxaqiqat inson chuqur ruxiy xolatga tushganda aynan uni oldinga undovchi narsa turtkidir. Keling men sizga o'zingiz bilgan bitta narsani aytay, dunyo faqat charaqlagan quyosh va kamalaklardan iborat emas, u juda yomon va rasvo joy. U qanchalik kuchli ekanligining axamiyati yo'q. U sizni urib tez cho'ktiradi va qarshilik qilmasangiz abadiy tiz cho'kkan xolingizni saqlab qoladi. Siz, men yoki boshqa hech kim xayot urganchalik qattik ura olmaydi. Gap sizning qanchalik qattik ura olishida emas, qanchalik qattik davom ettira olishingda, qanchalik zarbalarni olib, yo'lingizni davom eta olishingizda. G'alaba manashu yo'l bilan erishiladi.

Agar o'zingiz nimaga erishingizni bilsangiz boring va o'zingiz arziydigan narsalarni qo'lga kiriting. Ammo siz zarbalarni olishga tayyor bulishingiz kerak va zarba tekkanda u tufayli shunday bo'ldi, bu tufayli shunday bo'ldi deb boshqalarga barmoq o'qtalmasligingiz kerak. Qo'rqoqlar shunday qiladi va siz qurqok emassiz. Siz ulardan yaxshiroqsiz, xar doim o'zingizga men uddalayman deb motiv berishingiz kerak". Xavotirlanayapsiz, qurqayapsizmi, vaqtim yo'k, kechikdim deb o'ylayapsizmi adashasiz, o'zingiz ustingizda ishlashingiz va yorqin kelajak sari qadam bosishning erta-kechi yuk, muximi siz uz xatolaringizni anglay boshladingizda xarakat qilish uchun kuch topa olganingizdadir.

Ba'zilar 22 yoshida institut yoki universitetni tamomlaydi lekin, munosib ish topish uchun 5 yil kutadi.

Ba'zilar 50 yoshida kompaniya raxbari bo'ladi va 90 yoshgacha umr kuradi.

Barak Obama 50 yoshida nafaqaga chiqqan bo'lsa uning bir vaqtlari vitse prezidenti bo'lgan Jo Bayden 78 yoshida AKSh prezidenti bo'lmoqda.

Ba'zilar turmush qurgan vaqtda ba'zilar xali xam bo'ydoq bo'ladi.

Bu dunyoda xar kim o'z vaqt o'lchovi bilan yashaydi.

Sizning atrofingizdagi odamlar go'yoki sizdan ancha oldimlab ketganga o'xshab ko'rinadi, ba'zilar esa ortda qolayotgandek. Ularga xasad qilmang va havas ko'zi bilan boqing. Shuning uchun o'zingizni xotirjam tuting. Siz kech qolmadingiz. Siz odimlab xam ketmadingiz. Barchani uz xayot yo'li va umr o'lchovi bor. Faqat bu narsalar uchun o'z maqsadingizga xarakatdan to'xtamang. Biror narsaga erishmoqlikni maqsad qilib qo'ydingizmi unga dastlabki qadamni xozirdan, shu ondan boshlang. Harakat qilayapman deb aytayapsizmi, atrofga shunchaki nazar soling 7 yoshdan 70 yoshgacha xamma xarakatda xamma doimo nimagadir shoshiladi, lekin ularning aksariyatida ma'lum maqsad yo'q. Ularga diqqat bilan nazar soling kimdir ko'cha-kuyda arava tortayotgan bo'lsa kimdir raxbarlik kursisida o'tiribdi. Endi uzingizga savol bering sizningcha xarakatni uzi kifoyami? Yo'q, albatta biz haqiqiy liderlik, yorqin kelajak va ulkan marralar sari dadil va bardam xarakat qilar ekanmiz biz uzimizda o'sha kuchni motivni topaolishimiz va uni tug'ri yo'lga targ'ibot qila olishimiz kerak. Har kuni shunchaki faxr bilan uyquga keting va erta tongda shukronalik xissi bilan uyg'oning. Apple kompaniyasi raxbari Stiven Jobs "Qabrisonidagi eng boy odam bo'lish men uchun muxim emas nimadur ajoyib ish qilganligimizni ta'kidlab yotish bu men uchun haqiqiy motivdir va xammasidan



Date: 23rdDecember-2024

axamiyatlidir”. deb aytib utgan. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki nafaqat jamiyatda balki xayotimizda motivatsiya muxim axamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, nafaqat o‘zimiz balki xayotni barcha soxalarida xususan, ta’lim, sport, san’at, hamma-hammasida motivatsiyani o‘rni kattadir. Asl liderlarning siri xam shundadir aslida. Shunday ekan biz o‘zimizda o‘sha kuchni topalishimiz va uni jamiyatda targ‘ibot qila olishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Uzbekistan davlatini birrgalikda barpo etamiz. Uzbekistan Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga baFishlangan Oliy Majlis palatalarining kushma majlisidagi nutk. - Toshkent: “Uzbekistan”, 2016.-56 b.
2. Goziev E.G. Ijtimoiy psixologiya. -T.:, 2010.
3. Goziev E.G. Menejment psixologiyasi. -T.: 2001.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N.I.. “Umumiy psixologiya” -T.: 2010
5. “Motivatsiya nazariyalari va ularni tashkilotlarda kullash: xatarlarni tax,lil kilish”: Tadjikot poFOnasi. Kabul kilingan sanasi: 2019 yil 27-noyabr.
6. “Motivatsiya va inson istagi xdkida 8 ta nazariya”: Chopra markazi.Chopra markazidan 2019 yil 27-noyabrda olingan: chopra.som.
7. Rahmatullayeva M. Pedagoglaming ilmiy pedagogik kompetentlikni shakllantirishning mazmuni. Mejdunarodnyy konferensiya akademicheskix nauk g.Novosibirsk 2021 yil 27.03. 178-180 bet
8. Rahmatullayeva M.. Zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalarda modulli yondashuvning mazmuni, maqsadi va vazifalari. “Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy- texnik anjuman to’plam, Jizzax, 2022 yil 14-15 oktabr

